

**MOYLI O'SIMLIKLARNI VA KUNGABOQAR O'SIMLIGINI
YETISHTIRISH, ULARNI KASALIKLARNI O'RGANISH VA
TAQQOSLASH USULLARI.**

Imomaliyev Mahmudjon Alijon o'g'li

Farg'ona Politexnika instituti, Yengil sanoat va to'qimachlik fakulteti, Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishslash texnologiyasi yo'nalishi talabasi.

Umarqulova Barchinoy Nematovna

Farg'ona Politexnika instituti Yengil sanoat va to'qimachlik fakulteti, Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishslash texnologiyasi yo'nalishi katta o'qituvchi.

*Farg'ona politexnika instituti (97-813-13-03, e-mail
imomaliyemahmudjon4@gmail.com)*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada siz dunyo va O'zbekistonda moyli va kungaboqar ekinlarini yetishtirish va ularning oldini olish haqida nazariy va aniq ma'lumotlar bilan tanishishingiz mumkin.

Аннотация: В этой научной статье вы сможете ознакомиться с теоретической и конкретной информацией о выращивании масличных и подсолнечных культур и их профилактике в мире и в Узбекистане.

Annotation: In this scientific article, you can get acquainted with theoretical and specific information on the cultivation of oil and sunflower crops and their prevention in the world and in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Kislotalar, ozuqa manbayi, silos, glitserin, integratsiya, "mobitoks" mashinasi.

Ключевые слова: Кислоты, источник питания, силос, глицерин, интеграция, машина Mobitox.

Key words: Acids, food source, silage, glycerin, integration, Mobitox machine.

Malumki dunyo aholisi kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu esa oziq-ovqat tanqisligi va aholini sifatlari ozuqa manbayi bilan taminlash muamolarini vujudga keltiradi. Qishloq xo'jaligida moyli ekinlar va kunga boqar moylari asosiy ozuqa mahsuloti hisoblanadi. Moyli ekinlar asosan yer yuzi bo'yicha 140 mln gektradan oshadi, moyli eng ko'p tarqagan ekinlar: **soya** (111,3 mln. ga), **kungaboqar** (20,6 mln. ga), **maxsar** (7,82 mln. ga), **yeryong'oq** (23,7 mln. ga), **moyli zig'r** (7,5 mln. ga), **kunjut** (9,4 mln. ga). Moyli ekinlar AQSH, Kanada, Hindiston, Braziliya, Argentina, Xitoy, Pokiston, Rossiya, Moldova, Ukrainada keng tarqagan. Moyli ekinlaming urug'i va mevasi tarkibida 20-60% moy bo'lib, oziq-ovqatda, konserva ishlab chiqarishda, qandolat va non mahsulotlari tayyorlashda qo'llaniladi, Bundan tashqari,

o'simlik moyi margarin,sovun,lak,buyoq,alif,stearin,linoleum ishlab chiqarishda,tabobatda,parfyumeriyada,teriga ishlov berishda qo'llaniladi.Moy ishlab chiqarilgandan keyin qolgan kunjara va shrot chorva mollariga yuqori tuyimli ozuqa hisoblanadi.Ayrim moyli ekinlar silos tayyorlashda qo'llaniladi.Moyli urug'larning xalq xo'jaligida oziq-ovqat va texnik moy uchun xom ashyo sifatida ahamiyati juda katta.O'simlik moyi sifatida kungaboqar,kunjut,chigit,indov,xantal,ko'knor,maxsar,zig'ir,soya urug'inining moylari ishlatiladi.Dunyo miqyosida oziqabop o'simlik moyi sifatida kungaboqar moyi,soya moyidan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi.Respublikamizda asosan paxta,kungaboqar,zig'ir moylari ishlab chiqariladi.Ekilishi bo'yicha moyli o'simliklardan birinchi o'rirlarga chigit,kungaboqar,zig'ir,soya urug'lari egallaydi.Respublikada mavjud yog'-moy korxonalari yiliga 2700 ming tonna yog'- moy o'simlik xom ashylarini qayta ishslash quvvatiga egadir.Mamlakatimiz agrosanoat kompleksida integratsiya jarayonlarini takomillashtirish va chuqurlashtirishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatayotgan ushbu tarmoq mahsulot sifatini oshirish va turlarini kengaytirish,xom ashydadan to'liq hamda samarali foydalanish,aholi ehtiyoji va bandligini ta'minlash masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyatga ega.O'simlik moyi - glitserinning moy kislotalari bilan birikishidan vujudga keladigan murakkab efirlardir.Yog' tarkibiga uglerod (75 79%),vodorod (11-13%) va kislorod (10-12%) kiradi.Oqsil va uglevodga nisbatan moyning quvvati ikki-uch barobar ortiqdir.

Kungaboqar moyi asosan oziq-ovqatda qo'llaniladi.U oqish sariq rangli,tiniq,yarim quriydigan(yod soni 119 144),urug' tarkibida 29-56% moy va 15% oqsil bo'ladi.Moy tarkibida 62% gacha biologik faol menol kislotosi,vitaminlardan A,D,E,K,fosfatidlar mavjud.Kungaboqar moyi margarin,mayonez,baliq va sabzavot konservalari,qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda lak-bo'yoq,sovun tayyorlashda ishlatiladi kungaboqarno oxirgi mahsulotlari sifatida chorvo mollariga ozuqa oladi.Kunjara tarkibida 5-7% shrotda esa 1% moy,33-35% oqsil bo'ladi.Kungaboqaring savati(gulto'plami)chorva mollariga ham yaxshi oziqdir.Kunjaraning tarkibida 30% oqsil va 5-6% moy bo'ladi.Poyadan potash va furfurol ishlab chiqariladi.Savatlardan silos tayyorlanadi.100 kg silosning tarkibida 11 kg oqsil,12,3 kg ozuqa birligi mavjud.Baland bo'yli,serbargli navlari ko'k ozuqa va silos tayyorlashda qo'llaniladi.

Kungaboqar mag'zining kimyoviy tarkibi%.(1-jadval)

Yog'	Oqsil	selyulloza	Azotsiz ekstraktiv moddalar	Kul
55,87	27,44	3,28	10,2	3,3

Kungaboqar yoriq sevar o'simlik bo'lib yerdan unib chiqshdan boshlab pista donlarni pishgunicha $2600^{\circ} C$ dan $2900^{\circ} C$ harorat talab qiladi,bu iqlim mintaqasi mo'atdir

bo'lgan mamlakatlardagi harorat bo'lib, o'zbekistonda iqlim issiq bo'lib 2450°C dan 2840°C da yetarli. Urug'lari $5\text{-}10^{\circ}\text{C}$ da unib chiqadi, harorat $10\text{-}12^{\circ}\text{C}$ bo'lganda ancha tez unadi. Optimal harorat 18°C bo'ladi. Bundan yuqori haroratda unib chiqish jarayoni tezlashadi. Maysa -6°C sovuqqa bardoshlidir 0°C itlash yer haydashdan oldin organik va fosforli-kaliyli o'g'itlar solinadi. Organik o'g'it sifatida $15\text{-}20 \text{ t/ga}$ go'ng, $45\text{-}60 \text{ kg}$ dan PK ekish bilan birga $1,0\text{-}15 \text{ kg}$ NPK unib chiqqandan keyin $30\text{-}50 \text{ kg}$ N va $20\text{-}40 \text{ kg}$ P qo'llanadi. Ekish uchun rayonlashtirilgan navning urug'i ekiladi.



Kunga boqar moy va urug'i ko'mnishi (1-rasm)

Urug' 1000 donasining vazni $50\text{-}100 \text{ g}$ bo'lishi kerak, unuvchanligi 95% dan kam bo'lmasligi, tupsoni nam yerlarda $40\text{-}50 \text{ ming}$, qisman sug'oriladigan yerlarda $30\text{-}40 \text{ ming}$, lalmi yerlarda $20\text{-}30 \text{ ming}$ o'simlik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Amalda ekiladigan urug' miqdori urug' sifatiga, ekish usuliga, navlarining biologiyasiga bog'liq bo'lladi. Begona o'tlarga qarshi kurashish. Begona o'tlarga qarshi nitran, treflan, gezagard-50 gerbitsidlari qo'llanadi, buning uchun OPSH-15, OP-200-2-01, POM-630 mashinalari qo'llaniladi. Gullash davrida ekinzorga asalari uyalari qo'yilsa, gullar yaxshi changlanadi, hosildorlik oshadi ($1 \text{ ga}-1,0\text{-}1,5 \text{ uya}$). Kasalliklariga va hasharotlarga qarshi k urashish. Kasalliklarga va hasharotlarga qarshi urug' ekishdan oldin TMTD $80\%-3 \text{ kg/t}$, apron $35\%-4 \text{ kg/t}$ ishlatiladi. Bu ishlar PS-10 yoki "Mobitoks" mashinasida bajariladi. Zarazixaga qarshi almashlab ekish, urug'ni dorilash, chidamli nav ekish tavsiya qilinadi. Moyli ekinlar va kunga boqar o'simligini suvg'a bo'lgan talabi past hisoblanadi. 0'suv davrida sug'oriladi. Sug'orish me'yori $600\text{-}800 \text{ m}^3/\text{ga}$ bo'lib, gullash davrigacha 2 marta, gullash davrida 2 marta, pishish davrigacha 1 marta sug'oriladi. Hosilni yig'ish. 0'simlik rangiga qarab yetilganligini aniqlash mumkin. Keyingi yillarda olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, sermoy kungaboqar urug'ining po'chog'i nihoyatda yupqalashib ketganligi uchun ularni uzoq muddat saqlash ancha qiyinchilik tug'diradi. Chunki bunday urug' tez buziladi, yog'ining sifati o'zgarib, oziq-ovqatga yaramaydigan bo'lib qolar ekan. Shuning uchun sermoy kungaboqar urug'ini yig'ish, tayyorlov punktlari va

zavodlarga tashish va ularni sifatli qilib saqlash chora tadbirlarini ko‘rish kerak bo‘ladi. Hosil don kombaynlarida maxsus moslama bilan faqat savatlari o‘riladi. So‘ngra poyalar o‘rib olinadi, maydalaniib shirali oziqlarga qo‘silib siloslanadi. Savatlaming 60-65% qismi qorayganda hosil yig’mi boshlanadi. Saqlanadigan urug’ning namligi 13% dan oshmasligi lozim.

V.I.Yakutkin (2003) Rossiya sharoitida kungaboqar ekinlarini boshqa zararkunandalar qatorida qattiqqanotlilar turkumi, bukri qo‘ng‘izlar oilasiga mansub kungaboqar tukli qurti (Mordellistena parvula Gyll.) ham qattiq zararlashini ko‘rsatib o‘tadi. Muallifning aytishicha bu zararkunanda yalpi ko‘paygan yillarda bir poyada 90-100 donagacha uchrab, 70% dan ortiq o‘simliklarni nobud qiladi. B.V.Vereshagin (1988), T.Kapitanova (1986) tomonidan tahlil qilingan maqolalarda Fransiyada kungaboqarning ertapishar navlari kungaboqar parvonasi, shiralar bilan qattiq zararlanishi va ularga qarshi havo harorati 20°C atrofida bo‘lganda, kungaboqar gullaguncha (asalarilar uchib kelmasdan) primor, detsis preparatini qo‘llash tavsiya etilgan. Kungaboqar ekinini tuproq ostida rivojlanadigan zararkunandalardan himoyalash zarurligi, keltirilgan. Ukrainianing markaziy o‘rmon va dasht rayonlari sharoitida Tan Chan Kuang (1989) ma‘lumotlarida soya ekilgan maydonlarida 30 turdan ortiq o‘simlikxo‘r va 12 10 tur yirtqich tripslar, 30 dan ortiq tur qandalalar, ola bula va tukli tugunak uzunburunlar, saratonlarning har xil turlari uchrashi to‘g‘risida aytilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Nazirova Raxnamoxon Muxtorovna Xamrakulova Muborak Xakimovna Usmonov Nodirjon Botiraliyevich . “MOYLI EKIN URUG‘LARINI SAQLASH VA QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI” -Farg‘ona-Vinnytsia «Evropa ilmiy platformasi» 2021y.
2. O.YAQUBJONOV, S.TURSUNOV.”O’SIMLIKSHUNOSLIK”-TOSHKENT – 2008y.
3. Q. X. MAJIDOV, S. SH. ISMATOV, A.T. RO’ZIBOYEV, N. Q. MAJIDOVA “YOG‘LARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI”- Buxoro 2022 y.
4. I.B. Isabayev, F.U. Suvanova, Q.H. Majidov Yog`lar va moyli xom ashyolar kimyosi-Toshkent – 2019y.
5. Yu.Q.Qodirov, M.N.Raximov “Yog`larni qayta ishslash texnologiyasi” o‘quv fanidan darslik,- Toshkent, 2009 y

Konferensiya qatnashuvchisi anketasi.

F.I.SH:	Imomaliyev Mahmudjon Alijon o'g'li.
Yo'nalish nomi:	Qishloq xo'jalligi mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishlash texnalogiyasi.
Maqola nomi:	Moyli o'simliklarni va kungabooqar o'simligini yetishtirish, ularni kasaliklarni o'rganish va taqqoslash usullari.
Ish joyi:	Farg'ona politexnika instituti talabsi.
Lavozimi:	Bakalavr talabasi.
Qatnashuvchi raqami:	telefon +998978131303
e-mail:	imomaliyemahmudjon4@gmail.com